

2024-yil – Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili

IJDİY PARVOZ

2024-yil yanvar

№ 2 (129)



dsmi.uz



nashriyot@dsmi.uz



t.me/dsmi_uz



O'zbekiston davlat san'at
va madaniyat institutining
ma'nnaviy-ma'rifiy, ilmiy,
ijtimoiy gazetasi


Hazrat Alisher Navoiy
tavalludining 583 yilligi



Abadiyat bilan qay so'z egizak,
Balki yaxshi orzu, yaxshi niyatdir?
Mangulik anglanar Navoiy desak,
Navoiyning o'zi Abadiyatdir.

Abdulla ORIPOV,
O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri

Zahiriddin Muhammad
Bobur tavalludining 541 yilligi



"Jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda ma'lum va mashhurdir. Uning beqiyos ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o'ringa ega".

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

BÜYÜK ZOTGA EHTROU

"Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'r'in tutadi. Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlari butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'r'in egalladi", – deb takidlaydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Alisher Navoiy o'zbek tili jonkuyari va himoyachisi sifatida nihoyatda ulug' ishlarni amalga oshirgan. Ul zotning

ijodiyoti naqadar Sharq mumtoz adabiyoti, balki jahon adabiyotida ham favqulodda muhim hodisa bo'lib, bir-biridan a'llo asarlarda mutafakkir shoirning til, tilning jamiyatda tutgan o'rnii, ahamiyati, shuningdek, nutq madaniyati, notiqlik san'ati, so'zning qadri va qudrati, tilning ichki tabiat, insoniyatga ko'rsatadigan ta'siri kabi hamma zamonlarda ham dolzarb bo'lgan masalalar haqidagi qarashlari aks etgan. Xususan, "Mezon ulavzon" va "Muhokamat ullug'atayn", "Hayrat ul-abror", "Lison uttayr", "Sab'ai sayyor", "Munshaot", "Nazm uljavohir", "Xazoyin ulmaoni" kabi asarlarida shoirning so'z ta'rifidagi fikrlari, ona tiliga munosabati yorqin namoyon bo'lgan.

2

Alisher Navoiy hikmatlari

Til shirinligi — ko'ngilga yoqimlidir; muloyimligi esa — foydali. Chuchuk til achchiqqa aylansa ko'pchilikka zarari tegadi; qanddan may tayyorlansa harom bo'ladi. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir; bolalar uchun muloyim tabiatli odam — halvofurush kabi sevimplidir.

U yerdan bu yerga gap tashuvchilar elning gunohini o'z bo'yning oluvchilardir. Chaqimchilik hatto chin gap bo'lsa ham ko'ngilsizdir, yolg'on bo'lsa yanada nafratlidir. So'z yetkazuvchining xoh kattasi, xoh kichigi — do'zax o'tining tutanturug'i bil.

Baxt yog'dusi balqib turgan zot

Podshoh sakkiz yuz sakson sak-kizinchil yil muharram oyining oltinchi (1483-yilning 14-fevrali) kunida tavallud topdi. Ulug'bekning ulamoyi mutahhirlaridan biri – Mavlono Munir Marg'inoniy uning tug'ilgan yili tarixini "Shashi muharram" (muharram oyining oltinchi kuni) so'zlaridan topdi. Ular Hazrat Eshon Ubaydulloh(Xoja Ahror)dan go'dakka ism qo'yib berishni so'rashdi. U kishi Zahiriddin Muhammad ismi bilan musharraf qildilar. U paytda chig'atoylar ko'chmanchi hayot kechirishar, o'troq emas edi, ular Zahiriddin Muhammadni aytishga qiyinalishardi, shu sababli

uni Bobur deb ham atardilar. Xutba va yorliqlarda uni "Zahiriddin Muhammad Bobur" deb aytishdi va yozishdi. Ammo u ko'proq Bobur Podshoh nomi bilan mashhurdir.

U turli go'zal fazilatlar, maqtovga loyiq sifatlarga ega podshoh edi. Barcha sifatlari ichida shijoat va muruvvatpeshaligi ustun kelardi. Turkiy she'riyatda Mir Alisher dan keyin hech kim uningchalik ko'p yozmagan. U turkiyda ajoyib totli devon tartib bergan. "Mubayyin" nomli she'riy asar yaratgan – bu juda foydalı kitob bo'lib, odamlar uni fiqh dasturilamali sifatida qabul qilishgan.


4

Zahiriddin Muhammad Bobur hikmatlari

Ko'pchilik bahodirlar qanchalar kuchli bo'lmasinlar, ular hargiz o'z jahllari va qo'rquvlardan ustun kela olmaydilar.

Dushman aldroviga uchma; maddoh xushomadini chin dema. Dushmanning g'arazi o'z yomon niyatiga yetmoqdir; maqtovching maqsadi — xorlik bilan sendan in'om olmoqdir. Agar ikkalasiga iltifot qilmasang va qabul qilishni lozim bilmasang, biri o'z maqsadining ijrosidan to'xtaydi va tadbiri mujmal bo'ladi va ikkinchisining maqtovi hajvgaga aylanadi.

BÜYÜK ZOTGÀ ETISH ROM



1

Büyük mutafakkir allomamizning 583-yilligi respublikamizning baracha olyi ta'lif muassasalarida, maktablarida hamda mahallalarida keng miqyosda nishonlanmoqda. 9-fevral kuni ham O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor E.Shermonov boshchiligidagi institutimiz professor-o'qituvchilari, iqtidorli talabalari hamda keng jamoatchilik vakillari erta tongdan poytaxtimizdagi "Adiblar xiyoboni"da so'z mulkining sulton, mutafakkir, adabiyot gulshanining ulug'siyomasi Alisher Navoiy tavalludiga bag'ishlangan tadbir munosabati bilan shoir haykali poyiga gul qo'yishdi. Undan tashqari, institutimizning o'quv teatrida "Navoiydan chu topqaylar navoye" deb nomlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Ushbu tadbirda so'zga chiqqan barcha o'qituvchilarimiz yurtimizdagi adabiy islohotlarda Alisher Navoiy asarlarini

o'rganish, ularni keng targ'ib etish va xorijiy tillarga tarjima qilishga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidlab, biz yoshlarga ul zotning barcha asarlarini o'rganib, uni real hayotda qo'llashimiz kerakligi aytib o'tishdi.

Ma'lumki, yurtboshimizning har bir chiqishlarida, doimo xalqimizga, ilm ahli va ziyyolilarga, ayniqa, yoshlarga murojaat qilib "ta'lif", "muallim" deya kuyib-yonib aytayotgan so'zlarning mohiyatida ham aynan Navoiy bobomiz o'z asarlarida yozganidek, ilmu hunarni egallagan yoshlar jahonni zabit eta oladi, degan sharqona, milliy va umumbashariy ezgu g'oyalalar mujassam. Chindan ham bugungi tezkor, globallashuv jarayonlarida biz yoshlar ilm, ma'rifikat va ma'naviyat orqasidan quvishimiz shart. Chunki milliy ma'naviyatimiz Uchinchi Renessans poydevori sifatida xalqimizning ma'naviy olamini yanada yuksak darajaga ko'tarish uchun xizmat qiladigan

poydevor sifatida e'tirof etilmoqda. Bugun rivojlangan ijtimoiy tarmoq va takomillashgan texnologiyalar asosida o'sib kelayotgan yoshlarimiz milliy ma'naviy va madaniy makon ta'sirida bo'lishlari shart. Chunki yoshlarimiz Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasini yaratish uchun bugungi kunda jamiyatimizdagi real ma'naviy holatga nazar tashlashlari kerak bo'ladi. Yanada aniqroq aytganda, bugungi yoshlarimizning ma'naviy-madaniy holati, ularning bilim salohiyati Yangi O'zbekiston ma'naviy qiyofasiga poydevor bo'lishi lozim. Shuning uchun ham o'sib kelayotgan har bir yoshlarimiz, Navoiy bobomizning "Yoshligingda yig'il bilimni, qarigach sarf qilg'il ani", – deb aytgan hikmatli so'zlarini doimiy shior deb bilishlari shart. Zero, yuksak ma'naviyatli, zamonaliv bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarimiz Yangi O'zbekistonimizning kelajagidir.

Munosabat

"Men o'qituvchiga Prezident obro'sini berdim"

Bugun dunyoda taraqqiyot soniya sayin olg'a ilgarilamoqda. Bu davrda va kelajakda o'zligimizni saqlab qolish, jahonda o'z o'rniimizga ega bo'lish uchun qanday yo'l tutish kerak?, degan haqli savol tug'iladi. Bu savolga jadid bobolarimiz ta'kidlaganidek, "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas" deb javob bersak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

ABDUG'ANI SODIQOV

Har bir sohaning rivoji, aql-zakovatimizning kengayishi zamirida ilm-fan va ta'lif yotadi. Ta'lif tizimining taraqqiyoti jamiyatning barcha sohalaridagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Ilm-fan va ta'lif-tarbiya – jamiyat va davlatning bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan masaladir. Shu bois mamlakatimizda ushbu masalaga davlat miqyosida ulkan e'tibor qaratilmoqda. Qaerdaki, yoshlar ta'lif-tarbiysi o'z holiga tashlab qo'yilsa, shu joyda jamiyat tanazzulga uchraydi. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zları zamonalr osha o'z qimmatini yo'qotmagan va yo'qotmaydi ham.

Biz farzandlari kelajagi va baxti uchun yashaydigan bolajon xalqimiz. Shu ma'noda, bolalarimiz taqdiri va kelajagini "Otangday ulug'" deb hisoblaydigan ustoz qo'liga ishonib topshiramiz. Ularni yoshlarning porloq kelajagi yo'lida chekkan mashaqqat va to'kkan ko'z nurini hech narsa bilan qiyoslab ham, baholab ham bo'lmaydi. Bugun qanday yutuqqa erishgan bo'lsak, bularning zamirida qadrond o'qituvchi va ustozlarining hissasi beqiyosdir.

Prezidentimiz tomonidan yaqinda imzolangan "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonun mammakatimizda o'qituvchilarga qaratilayotgan yuksak e'tiborning yana bir amaliy ifodasi bo'ldi. Ushbu hujjatda pedagoglarning huquqlari, majburiyatları, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilandi.

Shu bilan birga, pedagogning huquqlari, sha'ni, qadrqimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'lishi qat'iy belgilab qo'yildi. Mazkur Qonunga ko'ra, pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga, shu jumladan, hududlarni obodonlashtirishga va qishloq xo'jaligi ishlariiga jalb qilish taqiqlanadi.

Pedagogdan uning kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo'lmagan hisobotlarni va boshqa ma'lumotlarni,

jumladan, bitiruvchilarning bandligi ta'minlangani haqidagi hisobotlarni shakllantirishini va taqdim etishini talab qilish ham man etiladi. Uning zimmasiga tovar va xizmatlarni sotib olish majburiyatini yuklash, xususan, ish haqidan uning yozma roziligidisiz tovar va xizmatlar uchun mablag' ushlab qolish ham mumkin emas.

Mazkur Qonunda pedagoglarga doktorlik disseratsiyasi, darslik va o'quv qo'llanmalar yozish uchun ijodiy ta'til berilishi ham o'ren olgan. Shu qatori o'qituvchilarga mualliflik dasturlarini va o'qitish uslubiyatini joriy etish, zamonaliv pedagogik vositalarni erkin tanlash, davlat axborot-resurs markazlari xizmatidan bepul foydalanan kabi qator imkoniyatlar yaratilip berilmoqda.

Shuningdek, Qonunda pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasida ham muhim yangiliklar aks etgani alohida ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, o'qituvchi va murabbiylarning obro'yi joyiga qo'yilsa, mehnatiga munosib haq to'lansa va rag'batlantirilsa ta'lif-tarbiyada sifat o'zgarishlari kuzatilishi, shubhasiz. Rivojlangan davlatlar misolida olib qaralsa o'qituvchiga nisbatan hurmat juda yuqori. Chunki, eng avvalo, ilm-fan va ta'lifga qaratilgan ulkan e'tibor tufayli yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga erishish mumkin.

Masalan, Yaponiya imperatoridan davlatin-gizning ildam rivojlanish siri nimada? deb so'raganida: "**Men o'qituvchiga prezident obro'sini, bosh vazir maoshini, diplomat daxlsizligini berdim**", degan ekan. Italiyada bo'lsa "**uchta kasb egalari tirband yo'lda qolmasligi kerak: tez yordam, o't o'chiruvchilar hamda o'qituvchilar**". Angliyada esa "**bu bola daho, u o'qituvchidek fikrlaydi...**" deya o'qituvchilarni ulug' kasb egalari sifatida ardoqlashadi.

Davlatimiz oldida turgan eng muhim maqsad ham, vazifa ham – dunyodagi taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun erkin va farovon hayot tarzini qurishdan iborat. Ana shunday sharaflı vazifani uddalashda, yurtimizda uchinchi renessansni qurishda biz – kuchli bilim va salohiyatga ega, inson ruhining injenerlari, kelajak bunyodkorlari bo'lmish o'qituvchilar mehnatiga tayanamiz.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mazkur Qonun xalqimizning yoshlarga ilm ulashuvchi, fuqarolarimizga ma'rifikat va ma'naviyatni targ'ib qiluvchi kasb egalari – pedagoglarning maqomini yanada oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yangi muvaffaqiyatlarga keng imkoniyat va huquqiy asos yaratadi.

**BAXTIYOR SAMIYEV,
"MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI
TASHKIL ETISH HAMDA BOSHQARISH"
TA'LIM YO'NALISHI 2-BOSQICH TALABASI**

O'zbekiston dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan allomayu fozillarni, shoirlarni tarbiyalab, ilmu urfon o'rgatib, jahonga taqdim etgan diyor sanaladi. Ming yillar davomida mavjud bo'lgan jamiyat albatta ta'lif-tarbiya tizimisiz bo'lмаган. Uning o'ziga xos xususiyatlari, muassasalari, ta'lif-tarbiya dasturi, o'quv-qo'llanma va darsliklari, o'qish jarayoni qonun-qoidalari, o'qituvchilar, mudarrislar va ular oldiga qo'yiladigan talablar, o'qitish uslubi, o'quvchilarni imtihon qilish, o'qituvchi-mudarrislarning attestatsiyasi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish kabi qator masalalar bo'lган.

**Dunyoni
ilmu ma'rifat
qutqaradi**

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo ilm-fan o'chog'i edi. Bu davrda ayniqa Bag'dod shahri Sharqning yirik ilm va madaniyat markazi edi. IX asrda bu shaharda "Bayt ul-hikma" (Donishmandlar uyi) – islom Sharqining o'z davridagi Fanlar Akademiyasi tashkil etilgan edi. "Bayt ul-hikma"da katta kutubxonasi hamda Bag'dodda va Damashqda astronomik kuzatishlar olib boriladigan rasadxonalar mavjud edi. Bu ilm dargohiga jalb etilgan tolibi ilmlar tadqiqotlar bilan bir qatorda qadimgi yunon va hind olimlarining ilmiy merosini o'rganish va asarlarini arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanardilar. Bu yerda Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Habash Marvaziy va Abul Abbos Javhariy kabi Mavarounnahr va xurosonlik olimlar ijod qilib, o'rta asr ilm-u faniga katta hissa qo'shadilar.

Muso al-Xorazmiy (813-833) "Bayt ul-hikma"da mudir sifatida faoliyat ko'ssatadi. Dunyoviy fan olimlari bilan bir qatorda bu davrda islom ta'lifoti va mafkurasining takomili yo'lida Mavarounnahrlik muhaddis ulamolarning ham xizmati katta bo'ldi. Bu borada ayniqa Imom al-Buxoriy, uning zamondoshi va shogirdi Iso Termizi – (Abu Iso Muhammad at-Termizi – 824-894.) laring hissasi nihoyatda buyukdir. 3

Rahmatjon Tursunov 1939-yil Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi Mullaquvvat qishlog'ida tug'ilgan. 1946-yilda umumta'l'm maktabi qoshidagi havaskorlik to'garagiga qatnashdi. 1956-yil Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga o'qidi. 1960-1968 yillarda Toshkent Davlat Konservatoriyaning xor dirijyorligi fakultetida tahsil oldi. So'ngra turli o'quv dargohlarida musiqa o'qituvchisi lavozimida ishladi. Rahmatjon Tursunov 1968-1970-yillarda Qarshi Pedagogika institutining musiqa kafedrasini mudiri, 1974-yilda Toshkent davlat madaniyat texnukimida, 1974-yildan buyon Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti xor dirijyorligi kafedrasida katta o'qituvchi, dotsent, professor vazifalarida ishlagan.

DOVUDBEK NORQOBILOV, "ASHULA VA RAQS" TA'LIM YO'NALISHI 1-BOSQICH TALABASI

Rahmatjon Tursunov "Havaskorlik, ashula va raqs ansambllarining rivojanishi va pedagogic shart-sharoitlari" mavzusida dissertatsiya yoqlab, pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi. Rahmatjon Tursunov 1978-1985-yil professor Boris Giyenko sinfida kompozitsiya amaliyotidan maslahatlar olib, ijod bilan shug'ullandi. Aynan shu yillari quyidagi musiqa asarlarni yaratadi. "Cho'l gullari" xor uchun akapella, "Yodimda sen" pyessasi, "Chang taronasasi" kuyi, jo'r ovoz uchun "Paxtam mening paxtamdu", "Olqish aytar zamona" qo'shiqlari va boshqalar. Rahmatjon Tursunov ijodida qo'shiqchilik sana'ti juda ustuvor turadi. U turli mavzularda mumtoz va zamonaviy shoirlar she'rlariga yuzdan ziyod qo'shiq, ashula va yallalar yaratdi. Uning "Bulbul", "Mubtalo qilursan", "Madhingni kuylay", "Yor vasli", "Hayot qo'shig'i", Azim daryo", "Ko'ngil", Egam", "Oshkor bo'lursan", "Qalbimda o'zing borsan", "Sen quvonchim" kabi lirik qo'shiq va ashulalari, taniqli xonanda va hofizlar repertuarlaridan munosib o'rinn olgan.

Muallif yaratgan qo'shiqlar orasida "Sohibqiron temur", "O'zbekiston", "Vatan madhi", "Bahor jilos", "Vatanim tinchlik bog'i", "O'zbekiston suluv qizlari" va boshqalar alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek musiqa tarixiga oid ma'lumotlarni qidirish to'plash va notaga yozib olib, ilmiy-nazariy o'rganish hamda mutaxasislarga yetkazish ishiga Rahmatjon Tursunov salmoqli hissa qo'shdi.

U 1987-yil Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining "Xalq ijodiyoti", "Ashula va raqs" ansambliga rahbarlik qildi va o'sha kafedra ijobchi o'qituvchilarni yillar davomida tayyorlab, sinovdan o'tkazgan va takomillashtirilgan nota yozuvlarini saralab, jamlab, qo'llanmalarni nashrdan chiqardi. Xalq kuylarini notalashtirish, "Ashula va raqs" ansambliga u bilan ishlash uslubiyati kabi bir nechta qo'llanmalarni nashrdan chiqarib, mutaxasislarga yetkazdi. Rahmatjon Tursunov zamonaviy shoirlardan, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid, Normurod Narzullayevlar bilan birlgilikda hamkorlik qilgan va ko'plab san'atkorlardan: O'bekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Tojiddin Murodov, O'zbekiston, Qora-

qalpog'iston xalq artisti Ortig Otajonov, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Ahmadjon Dadayev, Nasiba Sattorova, O'zbekiston xalq hofizi Orolmirzo Safarov kabi san'atkorlarga bir nechta kuy va qo'shiqlarni bastalab, radio fondiga yozishga yaqindan yordam bergan. U yana teleradiokompaniya qoshidagi G'anjon Toshmatov rahbaridagi "Dutorchi qizlar" ansambl bilan hamkorlikda ishlagan.

Ustoz O'zbekstonda xizmat ko'satgan madaniyat xodimi faxriy unvoni bilan taqdirlangan. Unga 1987-yilda pedagogika fanlari nomzodi, 1989-yilda dotsent, 1994-yilda professorlik unvonlari berildi.

Rahmatjon Tursunov institutda ishlash jarayonida juda ko'p shogirdlar tayyorladi. Ularning ko'pchiligi turli lavozimlarda ishlab kelmoqdalar. Uning tashabbusi bilan 1987-yilda A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida "O'zbek xalq musiqasi" kafedrasini tashkil etildi. Uning bastakorlik ijodi 1960-yildan boshlandi. U bastakor sifatida ijodda alohida o'rinn egalladi.

Sharqning klassik, mashhur shoirlaridan bire Fuzuliying "G'amzasin sevding ko'ngil" g'azalining chuqur mazmuni ijodkorning otashin qalbiga

musiqa g'ulg'ulasini solgan edi. Ushbu g'azaldagi mukammal misralar bastakorning dunyoqarashi, ichki dunyosida katta o'rinn olibgina qolmay, balki uning badiiy ijodida ham o'z aksini topadi.

Ashula kuyining samimiyligi va ulug'-vorligi, keng ko'lamdaligi, osoyishtalik ruhini bag'ishlaydigan xususiyati, musiqa qanaging dunyovi his-tuyg'ularini ifoda laydi.

Rahmatjon Tursunov ijodida rangbaranglik, hayot haqiqatining turli tomonlari qamrab olingan hamda ular badiiy jihatdan umumlashtirilgan. Bularning barchasi bastakorning har bir asarida yorqin ifodalangan. Ustoz san'atkor R.Tursunov ijodini hozirgi yosh talabalar, yosh avlodlar ham darsliklar asosida o'qib, o'rganib kelmoqdalar. R.Tursunov ustozlarning ijodlarini davom ettirib, o'zbek milliy qo'shiqchilik san'atiga juda barakali hissa qo'shib kelgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, pedagogika fanlari nomzodi, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti "O'zbek xalq musiqasi" kafedrasini professori, bastakor Rahmatjon Tursunov 2014-yilda 75-yoshida Toshkent shahrida vafot etgan.

Dunyoni ilmu ma'rifat qutqaradi

Birgina Imam al-Buxoriy islam ta'limotiga oid yigirmadan ortiq asar yozdi.

Bu davrda Movarounnahr, Xuroson va Xorazmdan xalifalikning markaziy shaharlariga borib, fanning turli sohalarida ijod qilgan olimlardan tashqari madaniyatning deyarli barcha sohalari bo'yicha yetuk ustod-u shogirdlarning soni Bag'dod shahrida oz emas edi. Ko'rib turganimizdek, IX-X asrlarda O'rta Osiyo ilm-fanda eng jadallab ketayotgan edi. Vaholangki, Al Xorazmiy algebra faniga asos solganda Sharqiy slavyanlarda hali davlatchilik ham yo'q edi. Ammo hozirgi ilm-fanda ko'satkichlar darajasi bizda emas, Yevropa davlatlarida yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, dunyodagi 1,6 million nafar o'z mamlakatidan chetda tahsil oluvchi talabalarning 28 foizi Amerika hissasiga to'g'ri keladi. Buyuk Britaniyada esa bu ko'satkich 14 foizni tashkil qiladi.

Ta'lim tizimi darajasida Finlandiya butun dunyo bo'yicha 1-o'rinni egallab turibdi. Ammo Finlandiyada IX-X asrlarda davlatchilik ham yo'q edi. Biz ham ta'lim tizimini shunday bosqichga ko'tarishimiz kerakki, Markaziy Osiyo ta'lim markaziga aylanishi kerak. Bunga hamma salohiyat bor. Axir yuqorida dalillab ko'satgamizdek, o'rta asrlarda Xorazm, Buxoro, Samarcandlar shunday markaz bo'lganligi tarixiy fakt. Aslida, hozirgi "Axborot hurujlari"ga munosib javob bera olishimiz uchun ham sifatlari ta'lim va bilimni yanada kuchaytirish zarur deb o'layman. Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim tizimiga alohida



BIR SOATGINA
ILM O'ORGANISH BIR
KECHALIK IBODATDAN
YAXSHI, BIR KUNLIK
DARS ESA, UCH OY
TUTILGAN RO'ZADAN
AFZALDIR
(HADIS)

e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, yurtimizda yangi turdag'i ta'lim maskanlari, xususan Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar faoliyati yo'lda qo'yildi. Birgina 2020-yilni oladigan bo'lsak, yurtimizda matematika fani bo'yicha 56 ta, kimyo-biologiya fani bo'yicha 28 ta, informatika va axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha 14 ta ana shunday maktablar tashkil qilindi. Bu islohotlar albatta o'zining natijasini bermoqda. Buni 2017-2020-yillarda o'quvchilarimiz nufuzli xalqaro fan olimpiyadalarida 30 ta medalni qo'lga kiritgani misolida ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonda Uchinchi Renessansga poydevor bo'ladi. Shu sababli, mamlakatimizda uzluksiz ta'limni takomillashtirish, farzandlarimizni har tomonloma barkamol insonlar etib tarbiyalash, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim-tarbiyaning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimidagi o'zgarishlardan barchamiz yaxshi xabardormiz. Sohada yagona



MADINA IKROMOVA,
"MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI
TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH" TA'LIM
YO'NALISHI 2-BOSQICH TALABASI

davlat siyosatini yuritish maqsadida Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

Yurtimizda bunga o'xshash juda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Biz yoshlarni asosiy burchimiz esa, bu imkoniyatlarni oqlash uchun faqatgina ilm yo'lida izlanishdan iborat. Yurtimiz ishonchini oqlash uchun bilim olishdan to'xtamasligimiz zarur. Yurtboshimiz bizdan buyuk natijalarni kutmoqda. Hammasi o'zimizga bog'liq. "Yoshlar – kelajak poydevori", – deb bejiz aytilmagan. Aziz yoshlar, biz buni uddalaymiz! Yurtimizni tarixdagi kabi dunyo ilm-fan markaziga birlgilikda aylantiramiz.

Baxt yog'dusi balqib turgan zot

U "Turkiy aruz"ni yozganki, bunday yetuk asarni – turkiy aruzni ungacha hech kim bitmagan. Hazrat Eshon(Xoja Ubaydulloh)ning "Risolai voldiyya" asarini nazmiy tarjima qilgan.

Uning "Vaqoe" ("Boburnoma") nomida turkiy tildagi tarixiy asari borki, u juda aniq, tushunarli, shirali, sof jonli tilda bitilgan. Musiqiy va boshqa san'atlarda uning xonardonida ungacha bunday iqtidorli kishi bo'lmasdi.

Uning boshidan shunday g'aroyib voqealar, hayratlanarli sarguzashtlar va janglar kechganki, uning o'g'llaridan birortasi bunday voqealarni boshdan kechirmagan. Otasi Umarshayx mirzo olamdan o'tganda u o'n ikki yoshda edi. Bu haqda "Vaqoe"da shunday mohirona satrlar bitilganki, ular turkiyda bo'lsa-da, bu yerda keltiramiz: "*Dushanba kuni ramazon oyining to'rtida Umarshayx mirzo kabutarxonadining kabutar birla uchub, shunqor bo'ldi. O'ttuz to'qquz yashar erdi*". Bu voqe 899 (1494-yil 8-iyun) yilda sodir bo'ldi, Bobur o'shanda otasining o'limidan so'ng o'n ikki yoshida taxta chiqqan edi.

Sulton Mahmud mirzoning o'g'llari Boysung'ur mirzo bilan Sulton Ali mirzo o'rtaida shunday to'qnashuvlar bo'ldiki, Samarqandni himoya qilishga ikkovidayam kuch qolmadi. Buning xabari Andijonga yetgach, Bobur Podshoh Samarqandga qarab yurdi. Garchi mirzolar kuchsizlanib qolishgan bo'lsada, unga qattiq qarshilik ko'rsatishdi. Oxiri Boysung'ur mirzo dosh berolmay, shaharni tashlab, Hisorga ketdi va u yerda Xisravshoh tomonidan o'ldirildi. Bobur Podshoh Samarqandni oldi, Andijon lashkarini imkon boricha Samarqandda olib qoldi, qolgan qismi ruxsat olib-olmay Andijonga ketdi.

Tanbal Andijonga keliboq, bir qancha amirlar bilan kelishib, Bobur Podshohning ukasi Jahongir mirzoni podshoh qilib ko'tardi. Ular begunoh Andijon qozisi(Xoja Mavlonyozi Qozi) ni o'ldirishdi. U saltanat ishlarini izga tushirishda Podshohga katta yordamlar qilgan, behad taqvodor mo'min inson edi. Qozi o'ldirilmasdan oldinroq Podshohning yaqinlari qisqa muddatda qal'anı mustahkamlab olishdi va Boburga xat jo'natib: "*Iloj boricha tezroq bizning dodimizga yetmasangiz, Andijondagi ishlar so'zsiz barbod bo'ladi, unda aniqki, Samarqanddagidagi ishlar ham inqirozga uchraydi*", deb murojaat qilishdi.

Xat Podshohga yetib borgach, u Samarqandni tashlab, Andijonga yo'l oldi. Xo'jandga yetganda, xabar keldiki, dushmanlar o'z ishlarini qilib bo'lismagan. "*Bu yoqdan haydalgan, u yoqqa yetolmagan*". Podshoh sarosimada qolib, tog'asi Sulton Mahmudxonadan madad so'radi.

Shu paytda o'g'li va singlisi, ya'ni men faqir bandanining onasi yoniga Podshohning onasi va buvisi Esan Davlatbegim kelishdi. Shu munosabat bilan Podshoh bizning viloyat(O'rata)da ham turdi va aziz mehmonlar uchun mezbonlar qo'llaridan kelgancha harakat qildilar.

Ikkinchi marta juda katta qiyinchiliklar va qator mag'lubiyatu

g'alabalar bilan Bobur Podshoh Samarqandni o'z tasarrufiga oldi. Samarqandni himoya qilish maqsadida u Samarqandga talabgorlar bilan ko'p jang qildi, mag'lubiyat va g'alaba nimaligini sinab ko'rdi. Ish shaharda qamalda qolishgacha bordi. Oxiri Bobur Podshohning toqati toq bo'lib, Shohibekxonga opasi Xonzodabegimni berib, sulh tuzdi-da, ketdi, Samarqand Shohibekxon qo'lida qoldi. Bobur Podshoh yana o'z tog'alari yoniga qaytib, Andijon ishlarini bilan mashg'ul bo'ldi. Xonlar ham bellarini otalik mehrmuhabbi bilan bog'lab, Andijonni egallab, uni Podshohga berish uchun sa'y-harakatlar qilishdi. Ish ayтиb o'tilganidek yakun topdi.

Oxirgi jangda xonlar Shohibekxon qo'liga asir tushishdi. Podshoh Farg'ona janubidagi tog'larga ketdi va ko'plab qiyinchiliklar, mashaqqatlarni boshdan kechirdi. Podshohning onasi ham hamroh edi, Podshoh mulozimlarining ko'pchiligi ahli ayollari bilan ko'chmoqda



edi. Mo'minlarning imomi, yaxshilarning yaxshisi, musulmonlarning amiri Hazrat Ali (Allah uning yuzini iyomon nuri bilan yoritsin) bunday degan ekan: "*Hazrat Payg'ambarimizning so'zlariga ko'ra, "Safar – do'zaxning bir parchasidir*".

Makkor falakning zulmkorligiga ko'ra har bir aziz va gavhar kabi pok kishilar uchun tayyorlagan jafokorligi va dushmanligi, xorlikka solishlari qancha bo'lsa, ularning hammasi ana shu safarda Bobur Podshohning va uning safardoshlari boshlariga yog'ildi. Nihoyat ular sanoqsiz azobu mashaqqatlar bilan Xisravshohning poytaxti Hisor viloyatiga yetdilar. Xisravshoh odamgarchilik bilan mashhur edi. Bobur Podshoh undan odamgarchilik va muruvvat kutgan edi, lekin u falakdek teskari aylanib, odamgarchilik yuzini chetga o'girib, muruvvatsizlik orqasini muruvvatli zotning yuziga to'g'riladi. Harqalay u bir oz odamgarchilik qildi: ularning oldinga yurishlariga to'sqinlik qilmadi.

Gohida baxtsizlik oxiri baxt mevasin berar.

Garchi u joyda to'xtab turmoqlik ularga og'ir tuyulsa-da, harqalay bunda hamma narsaga qodir hokimi mutlaqning lutfi mujassam ediki, donolorning uzoqni ko'radigan ko'zlarini buni ko'rmasdi.


Bu orada Shohibekxonning Hisorga to'satdan bostirib kelishi va Mahmud sultonning Qunduzga hujumi shovshuvi Xisravshohning g'ururi hamda hokimiyatining ichi bo'sh nog'orasi gumbur-gumburini o'chirdi. Bobur Podshohning G'urida ekanligini bilmay u ham G'uriga yo'l oldi. Hali aytilgan joyga borganida Bobur uning xizmatkoru mulozimlari, amirdan shotirlarigacha katta-yu kichik hammasi Podshoh tomonga o'tib ketishdi. Xisravshohning Podshoh xizmatiga borishdan bo'lak iloji qolmadidi. Holbuki, u Podshohning amakivachchasi Sultan Mas'ud mirzoning ko'ziga olamni qorong'i qilgan, Mas'udning ukasi Boysung'ur mirzoni taxtga o'tkazgan zahoti qaytarib tobutga tortgan, Podshoh yuqorida zikr qilingan ahvolda uni qora tortib kelganida, bemuruvvatlik qilib, uni haydab yuborishni buyurgan edi.

Ayni paytda jabrlangan mirzolarning ukasi Mirzoxonning ota-onasi bilan Podshohning ota-onasi tug'ishgan aka va singil edilar, u ham og'ir lahzalarda, uning xizmatida edi, Xisravshoh Podshoh saroyiga kelgach, akalari uchun Xisravshohdan qasos olishni Podshohdan so'radi.

Tabiatan muruvvatli inson bo'lgan Bobur Podshoh Mirzoxonga muloyim ohangda: "*Afsus, ming afsuslar bo'lsinki, mana shunday hurmatli podshohlarga shayton makkorligini qo'llaydi*", dedi. Bobur muruvvat durlarini bag'rikenglik zumradiga shunchalik ishqaladiki, oxiri Mirzoxon bir so'z demay rozi bo'ldi. Xisravshoh Podshoh va Mirzoxonning uni shohona rasm-qoida va izzat-ikrom bilan kutib olishganini ko'rgach, g'addor manglayini uyat va xijolat teri bosa boshladidi, Podshoh esa uning terini afv etagi va marhamat yengi bilan artdi. Qabul tugagach, Podshoh o'z odamlariga Xisravshohning hamma narsasini – chodirlari, boyliklari, otlari va hakozaclarini undan qanday olishgan bo'lsa, o'sha holatda qaytarib berishni buyurdi. Garchi Podshoh oilasida birgina ot bo'lib, uni ham validai muhtaramasi minib kelayotgan, shunga ko'ra unda narsalarga muhtojlik bo'lsa-da, u Xisravshoh buyumlaridan hech narsa olmadi.

...Podshohning xizmatiga kelganimda, uning baxt yog'dusi balqib turgan nazari menga tushgan zahoti cheksiz rahm-shafqat va poyonsiz mehr-muhabbat tufayli injulardek ko'z yoshlari nurli ko'zlaridan ipga tizilgan durlardek to'kilardi. U mehribonlik bilan qaradi, marhamatli qo'lini men tarafga uzatdi va yaqin kelgin, deb ishora qildi. Tiz cho'kib salom bergandan keyin yaqin bordim, u meni rahm-shafqat quchog'iga olib, otalik mehri bilan bag'riga bosdi. Ancha vaqt quchog'ida ushlab turdi, men ta'zim rasmini ado qilmoqchi bo'lgandim, bunga yo'l bermay, yoniga o'tqazdi. Cheksiz kuyunchakligidan ancha vaqt o'zini bosolmay ko'zlaridan duv-duv injular to'kdi.

Shunda u mana bu gaplarni aytidi: "*Sening otang pochcham, mening tog'am – xon, aka-ukalaring, qarindosh-urug'laring shahidlik sharbatini ichishdi. Allohga beedad*



shukurki, sen yonimga eson-omon kelding. Endi ulardan ayrliganingga hech g'am chekma, chunki ularning o'rnini ortig'i bilan bosaman. Ulardan qanchalik mehr-muhabbat va rahm-shafqat kutish mumkin bo'lsa, shularning hammasini, hatto undan ham ko'pini senga bera olaman".

U menga mehr-shafqat ko'rsatib, shunchalik iltifotlar qildiki, yetimlik g'am-g'ussasi, darbadarlik azoblari yuragimdan batamom g'oyib bo'ldi. "*Seni kim olib qochdi?*" deb so'radi; "*Ustozim Mavlono Muhammad Sadr*" deb javob berdim. "*Uni ham chaqiringlar, ko'rishaylik!*" deb buyurdi. Mavlono kirgach Podshohning nurli nazari unga tushib, xitob qildi: "*Shu Mavlono Sadrmi? Ha, undan bu ishlarni kutsa bo'ladi*". Podshoh uni tanib, hurmat-ehtirom ko'rsatib, voqe tafsilotlarini yana birma-bir so'radi. Mavlono Muhammad hammasini hikoya qilib berdi. Hammalari hayrat izhor qilishdi. Podshoh Mavloni cheksiz e'zoz-ikromlar bilan siylab, unga hayrixohligini izhor qildi.

Podshoh bilan birpas o'tirganimdan keyin shohlik saxovati bilan men uchun hozirlangan joyga borishimga ruxsat berdi. Xonadan chiqqanimda bir kishi jadal istiqbolimga chiqib, menga behad hurmat izhor qilib: "*Podshoh siz uchun tayinlagan uya sizni olib borishni menge buyurishdi*", dedi. U oldinga tushib, bir chiroyli hovliga boshlab bordi. Xonalarga gilamlar to'shalgan, ko'rpachalar yozilib, yostiqlar qo'yilgan edi. U uyda yashash va dam olish uchun hamma narsa ortig'i bilan muhayyo qilingan edi. Shuncha azob-uqubaqtar, qiyinchiliklar tufayli joning go'yo bir qilga ilinib, o'lib ketishing ham xech gap bo'lmay qolgan bir sharoitdan keyin shunday huzur-halovat, to'kinsochinlik, xotirjamlik og'ushiga tushib qolsang, qanday til bilan minnatdorlik bildirishni ham bilmaysan. Karami keng Allohga behad shukurlar bo'lsin!

Shunday qilib, Qobulda ancha vaqt Podshoh xizmatida dorul-omonlikda kun kechirdim. U mudom mehribonlik bilan boshimni silab, goh iltifot bilan, goh qat'i amr bilan meni ilm egallahsga undardi. Agar ozgina bilim egallaganimni sezsa, u yanada iltifotliroq bo'lib, hammaga bu haqda gapirar va meni ruhlantirishlarini talab qilardi. O'sha paytlarda u menga shunday mehr-muhabbat va rahm-shafqat ko'rsatdiki, faqat mushfiq ota-onalargina o'z farzandlariiga shunday muomalada bo'lishlari mumkin. Podshohning mehribonchiliklari tufayli hech qachon g'am-g'ussa, baxtsizliklarga to'la kunlardan iborat bo'lgan davrni esga olmadim.

Ushbu pacha "Tarixiy Rashidiy" asaridan olindi.

Globallashuv davrida mutolaa madaniyatining ahamiyati

O'tmishimizda ham kitobga, kitobxonlikka e'tibor kuchli bo'lgani ma'lum. Jam bo'lib kitob o'qish, eshitish ishtyoqi kuchli bo'lgan. Qiroatxonlik, ifodali o'qish san'ati ana shu ehtiyojdan kelib chiqqan. Aslida, qissaxonlik, masnaviyxonlik, g'azalxonlik, navoiyshunoslik ham uning muayyan ko'rinishlaridan. O'ziga xos o'qish yo'li va uslubini o'z ichiga olgan bu san'at qiroat qoidalari qahramonlik yoxud ijtimoiy-maishiy mavzudagi badiiy kitoblar xususiyatiga qarab tanlangan. Faxr va iftixor bilan aytish joizki, xalqimiz azaldan ilm-ma'rifatga intilgan, kitob o'qishga qattiq mehr qo'ygan.

Yurtimizdan dong'i dunyoni tutgan ulug' olim va mutafakkirlarning ko'plab chiqqani ham bejiz emas. Ilmi ziylolar u yodqa tursin, oddiy hunarmand, kosib yoki dehqonning xonadonida uzun qish kechalari oilaviy kitobxoniklar bo'lgan, savodxon kishilar oila a'zolariga turli diniy, ilmiy she'riy kitoblani o'qib berishgan.

Matbaachilik rivojlanmagani, kitoblar xattotlar tomonidan qo'lda ko'chirilganiga qaramay, otabobolarimiz hamisha kitobga intilishgan, kitobni ardoqlashgan, o'qiganlarini boshqalarga yoyishgan. Biz shunday ilm-fan vatanining farzandlari ekanimizdan faxrlanishga haqli va o'tgan ajdodlarimizga hurmat-ehtirom ko'rsatishga burchlimiz.

Jangnoma, oshiqona yoki falsafiy dostonlarning ham o'z o'qilish yo'llari bor. "Shohnoma", "Sadgi Iskandariy" asarlari uchun muayyan vazn, ohang qo'llansa, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayho", uchun esa yana boshqasi qo'llaniladi.

Jamiyat rivoji uchun esa, tafakkuri teran, fikrlovchi avlod kerak. Busiz

istiqbol va iqbolni tasavvur etish qiyin. Keyingi paytlarda kitob o'rnini elektron ommaviy axborot vositalari egallagandek go'yo. Kitob o'rnini, u beradigan zavqni hech bir narsa egallay olmasligi tabiiy. Kitobxonlik madaniyati, kitobsevarlar jamiyati, mutolaa masalasiga e'tibor ma'naviy ehtiyojdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmoyishi xuddi shu masalaga e'tiborni qaratgani bilan ahamiyatlidir. Bu farmoyish jamiyatimda e'tibor sal susaygan og'riqli nuqtalardan biri, aynan kitob chop etish, tarqatish va uni mutolaasi bilan bog'liq muammolarning yechimiga yo'l qo'yishi aniq. Farmoyishda kitob va unga munosabat borasidagi kamchiliklarimiz va ularni bartaraf etish yo'llari ham o'z aksini topgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'zining saylov oldi dasturlaridayoq

kitobxonlik madaniyati masalasiga o'z e'tiborini qaratgan edi. Bu farmoyish esa, ularning amaldagi maqsadli harakatlarning ifodasi deyish mumkin. Farmoyishdan ko'zlangan maqsad xalqimizning, xususan yoshlarimizning intellektual salohiyatini oshirish, ularning fikrlash doirasini kengaytirish, badiiy did, tahvil, tanqidiy nazariyalarini o'stirish va estetik qarashlarini yanada takomillashtirishdir.

Moziydan ma'1umki, kitob o'qish madaniyati va teran tafakkuri orqaligina allomalarimiz o'zlar yashagan vatan shuhratini olamga yoyganlar.

Rivojlangan davlatlarda kitobxonlik darajasi doimo ustun. Fransuz olimi Eduard Labule

"Taraqqiyotning umumiyo ko'lamida har bir millatning o'rni o'sha millat o'qiyotgan kitoblarining soni bilan belgilanadi", - deb bejiz aytmagan.

Bugungi globallashuv zamonida kitob mutolaasi har zamonlarda bo'lgani kabi kitob orqali bo'lyaptimi? Albatta yo'q. Kitob bilan cheklanib qolganimiz yo'q. Ko'pchilik kitob mutolaasidan ko'ra elektron kitoblarini afzal ko'rmoqda. Chunki u ko'tarib yurish uchun qulay va kitob sotib olishdan yaxshiroq ya'ni, bepul. Elektron kitoblarni o'qishning afzalliklari bilan birgalikda nojo'ya ta'sirlari ham bor. Inson ko'p telefonga qarashi oqibatida undan chiqayotgan nurlardan ko'z toliqishi, ko'rish qobiliyatining pasayishi hamda turli xildagi ko'z kasalliklarini orttirib olishi mumkin. Shuni ham aytib o'tish kerakki, telefon orqali



DILDORA IRGASHEVA
"KUTUBXONA-AXBOROT
FAOLIYATI" TA'LIM YO'NALISHI
3-BOSQICH TALABASI

o'qish kitobdan, an'anaviy o'qishdan oлган zavqni bera olmaydi.

Xalqimiz so'zga chechan, kirishuvchan va mehmondo'st. Bunga sabab ularning azaldan ko'p kitob o'qiganligi hamda kitobga oshno tutinganligidir. Kishi o'rnda so'zlay bilishi uchun ham unga ong, aql bilan birgalikda so'z boyligi ham zarur.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda yosh avlodni ma'naviy-intellektual salohiyatini, ongini, tafakkurini, dunyoqarashini yuksaltirish, o'z vatani va xalqiga bo'lgan muhabbatni va satoqat hissini shakllantirishga doir islohotlar qatorida kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan e'tibor madaniy muloqtda ishtirok eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

39-maqсад

O'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlik hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni rivojlantirish

Mamalakatimizda 2023-yilda barcha sohalarda juda muhim bo'lgan amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar rejalashtirildi va amalga oshirildi. E'tirof etishga arzигуллик ishlarni aytib sanog'iga yetilmaysiz. Shu o'rinda ayni vaqtida dolzarbligi bilan davom ettirilishi kerak bo'lgan vazifalar ham talaygina ekanligi ko'rinish turibdi. Shu vazifalarni oxiriga yetkazib qo'yish va ko'zlangan maqsadga erishish maqsadida 2023-yilning 11-sentyabrida "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi 158-son Farmoni qabul qilingan edi. Ushbu farmon dolzarbligini yo'qotmagan 100 ta maqsad orqali Yangi O'zbekistonni barpo etish, rivojlantirishda belgilangan vazifalarni amalga oshirishni ta'minlaydi.


Beshta ustuvor yo'naliшhining birinchisida har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharointi yaratish, bu yo'naliшhda 44 ta maqsad, ikkinchisi barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, bu yo'naliшhda 17 ta maqsad, uchinchisi suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilish, bu yo'naliшhda 12 ta maqsad, to'rtinchı ustuvor yo'naliшhda qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat bopshqaruvini tashkil etish bu yo'naliшhda 16 ta maqsad, beshinchı ustuvor yo'naliшhda "xavfsiz va tinchliksevar" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish bu yo'naliшhda 11ta maqsad belgilab olingan.

Yuzta maqsad ichidan 39-maqсад haqida



to'xtalib o'tmoqchiman. O'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni rivojlantirish borasida ushbu soha mas'ullariga alohida vazifa yuklatildi. Agar ushbu maqsadda ko'zlangan maqsad yo'lida barcha ishlar amalga oshirilsa aholi ham o'sib kelayotgan yosh avlod vakillariga ham katta sovg'a bo'lardi. Chunki ma'naviyat va ma'rifatga e'tibor berilishida jamiyatning ravnaq topishi ko'zlangan bo'ladi.

Prezidentimizning tashabbusi bilan jahon adabiyotidan sara namunalari saralab olinib,



MUNIRA RAXIMOVA,
AXBOROT BIBLIOGRAFIYA
XIZMATI RAHBARI

o'zbek tiliga tarjima qilnib, nashr qilinishi va bu sohani moliyalashtirilishi yurtimizdag'i barcha kutubxonalarga yetkazib berilishi alohida ahamiyatli bo'ldi. Hozirgi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining xizmatlari tobora rivojlanib borayotgan bir vaqtida kitobxonlikning o'rnini jamiyatda mustahkamlab qo'yish zamon talabi bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, ushbu sohaga mas'ul bo'lgan barchani 39-maqсадni amalga oshirishda eng yuqori natijalarni qayt etishda, kitobxonlik madaniyatini yanada yuksaltirishda o'z bilim va mehnatlarini safarbar qiladi degan ummidamiz.

Behruz O'TKIROULOV,
"Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish" ta'lif
yo'nalishi 2-bosqich talabasi



Go'zallik

Go'zallik qayerda, izladim uni?
She'r bitdim, go'zallik yo'q edi unda,
Go'zallik balki u deya o'yladim,
Oppoq oymomoni kuzatib tunda.

Gullarmi go'zaldir yo gulni olgan?
Keltirdim o'zimcha go'zal misollar,
Go'zal ishontirib, go'zal aldaydi,
Go'zal ayrilig'-u go'zal visollar.

Xayolimdan o'tdi birma-bir tuyqus,
Ulkan binolar-u, katta shaharlar,
Hatto ko'zlarimda yo'qoldi uyqu,
Go'zallik izladim yana saharlab.

Saharlab go'zallik izladim yana,
Dimoqqa urildi issiq non hidi,
Keyin angladimki, go'zallik mening,
Tandirga egilgan validam edi.



**NARGIZA SHODMONOVA,
"MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH" TA'LIM YO'NALISHI 2-BOSQICH TALABASI**

Dunyo

Tongda oftob chiqib, tunda botarkan,
Do'st deganing bir kun siring sotarkan,
Sitamlari jon-joningdan o'tarkan,
Birda totli, birda dartli bu dunyo.

Birda shohsan, birda bo'larsan gado,
Omad ketsa, hech kim bermaydi sado,
Bir kun kelib, seni qo'llarkan Xudo,
Birda totli, birda dartli bu dunyo.

Tuzing totib ketar ekan oshnalar,
Vafo qilmay ketar, baland poshnalar,
Yo'ling kutar bir so'zingga tashnalar,
Birda totli, birda dartli bu dunyo.

Kimdirsa shon-shuhrat, obro', mansab bor,
Ammo baxti yarim, bir tirnoqqa zor,
Kimgadir do'st armon, kimga armon yor,
Birda totli, birda dartli bu dunyo.

Qoqlisang gar do'st, yor birdek kuladi,
Ishonganing ortingdan tig' uradi,
Mansab kelsa, hamma chin do'st bo'ladi,
Birda totli, birda dartli bu dunyo.

Gohi baxtdan yonib, sarmast bo'lasan,
Gohi hasrat, armonlarga to'lasan,
Dard kelganda kim, kimligin bilasan,
Birda totli, birda dartli bu dunyo.



Diyorbek SHODIZODA,
"Folklor va etnografiya" ta'lif
yo'nalishi 2-bosqich talabasi



Onamga...

Kelar yaxshi kunlar, kutamiz ona,
Barini yurakka yutamiz ona.

Faqat duo qiling yonimda bo'ling,
Biz hali zo'r bo'lib ketamiz ona!

Sizni ishonmasdan yer-u samoga,
Qalbingiz to'ldiray mehr-u daryoga.
Robbim menga shunday baxt ato etsin,
Olib boray sizni Ka'batillohga!

Yiroqdan porlagan yulduzim onam,
Qorong'u tunlarim, kunduzim onam.
Yurakdan balqigan hurmatim sizga,
Yakka-yu yagonam, tengsizim onam!

Hech narsang kerakmas, qo'y bolajonim,
Bir kunga bo'lsa ham kelsang armonim,
Deysiz, mehr bilan bag'rimga bosay,
Jonimdek asrayman, bo'lsang mehmonim.

Men sizni shaharga olib kelaman,
Eng qimmat sovg'alar olib beraman.
Onajon, ozgina sabr qilsangiz,
Men sizni albatta baxtli qilaman!

Siz uchun harakat qilaman ona,
Jannat poyingizni o'paman ona.
Faqat biz kutaylik Allohdan so'rab,
Siz uchun borimni beraman ona!

Oynafas HUSANOVA,
"Musiqali teatr aktyorligi" ta'lif
yo'nalishi 1-bosqich talabasi



To'g'ri yo'l

To'rt tomoni devor, bir xonadaman,
Yana men o'sha, men o'sha dardmand,
Otilib to'rt tomon, sarson-sargardon,
Yo yaratgan egam, to'g'ri yo'l ko'rsat.

Boshimni egolmay sajdaga tomon,
Qalbimni o'raydi butun bir hasrat,
Doimgidek yana men o'sha yomon,
Yo yaratgan egam, to'g'ri yo'l ko'rsat.

Telbaga aylandim batamom yana,
Yig'laymi, kulaymi, holim bir g'alat,
Jonim yo'q, ruhim yo'q, keraksiz tana,
Yo yaratgan egam, togri yol ko'rsat.

Yaqinim deganim, jonga sanchdi o'q,
Bundayin do'stlarga ming bitta la'nat,
Tirikman hali ham, ko'nglim shunga to'q,
Yo yaratgan egam, to'g'ri yo'l ko'rsat.

Quvonmang, "Do'stlarim" sinmadim hali,
Qalbimda sabr bor, qilaman toqat,
Hayotim oldinda, oldinda bari,
Yo yaratgan egam, to'g'ri yo'l ko'rsat.



**Ravshan TEMIROV,
"San'at va madaniyat menejmenti" ta'lif yo'nalishi 1-bosqich talabasi**

Umr sabog'i

Jajjigina chaqaloq payting,
Umring o'tar shabada misol,
O'ynab, yayrab, kulmoqchi bo'lsang,
O'sha damda o'ynab-kulib qol.

Keyin biroz yoshing ulg'ayar,
Oq-qorani taniy boshlaysan,
Hayot yo'li juda ham chigal,
Yecha olmay boshing qashlaysan.

Atrofingga nazar sol inson,
Endi umring shabada emas,
Shamoldayin o'tmoqda har on,
Lek, shamol ham qaytadan kelmas.

Shamoldayin o'tgan umringni,
Soniyasi azizdir bilsang,
To'xtatmagin oyoq, qo'lingni,
Qiynalmasdan yashayin desang.

Umr o'tar, qaytmaydi lekin,
Kundan-kunga ulg'ayar yoshing,
Har narsani jufti bor bilgil,
Sening jufting - umr yo'ldoshing.

Oila ham qurgansan qara,
Atrofingga farzanding giryon,
Farzandingga qarab bir bora,
Bolaliking eslaysan, hayron.

Shamoldayin o'tmaydi umring,
Aylangan u shamol, bo'ronga,
Sen tinglagan har bitta tovush,
O'xshab ketar go'yo suronga.

Umring o'tar, bo'rondayin tez,
Bir ko'z ochib, yumib qolasan,
Qoldirsang gar vijdon to'la iz,
O'lsang, shundan sajda olasan.

Ravshan, senga bir gapni aytay,
Aytib qolay, bo'lmasidan kech,
Umr o'tib, barchamiz o'lgay,
Hali vaqt bor, - deb yashama hech.



Daraxtdan qurtlarni tozalamay turib, undan toza va sog'lom meva kutish xato emasmi?

Adolat qolida bir parcha qogozni kotarib, director xonasining eshigi yonida turar ekan, u yerdan shoshilib chiqayotgan direktor orinbosariga duch keldi. Abdurahim aka uni korib bir nimani sezgandek qolidagi qogozga qaradi va istamaygina uning salomiga alik olib, Adolatni xonasiga boshlab ketdi. Adolat unga direktoring yoniga kelganligini, uni bezovta qilmaslikni xohlaganini aytди. Unga ergashishni xohlamadi, harchand urinmasin Adolatning direktor orinbosari bilan ketmaslikka iloji qolmadi. Adolat ich-ichidan direktoring yoniga kira olmaganidan xafa boldi.

Abdurahim akaning orqasidan xonasiga kirdi va orinbosarning yasama taklifiga binoan u korsatgan joyga otirdi. Abdurahim aka Adolatning qolidagi qogozga qaradi va unga berishini aytib, qolini chozdi. Adolat qogozni unga uzatar ekan ichidan bir narsa chirt etib uzildi. Ohista, lekin juda achchiq yutindi. Abdurahim aka qogozni oqirkan, avvaliga jahli chiqdi, keyin kuldii va sinchkovlik bilan Adolatga yuzlandi:

- Xosh, qizim, sen qaysi sifda oqirding?
- 7-sinfda.
- Xosh, bu nima? U oqituvchini yaxshi taniysanmi?

- Oqiganingizdek, direktorga bildirishnomasi. Bu yerda oqtuvchini tanish yoki tanimaslik haqida gap ketmayapti ustoz. Mavzu boshqa. (Adolat Abdurahim akaning savollariga javob berar ekan, ozini yanada tik tutdi va savollarga keskin qorqmay, uning kozlariga tik qarab gapirdi. Agar shu zamon ularni chetdan kuzatgan odam bolsa, Adolatni direktoring qizi yo biror vazirning, yoki katta mansabdorning qizi deb oylashi hech gap emasdi. Uning haqiqat, togrilik uchun kurashayotganligini ozi qalbining tub-tubidan sezib turardi va bu narsa unga katta kuch, dalda berardi)

- Mavzuni tushundik. Ammo, Rashid yaxshi oqtuvchi, unig ustiga maktabda oqtuvchilar soni oz, sizlarga boshqa oqtuvchi qoyib berolmaymiz. Dars soatlari togri kelmaydi. Ustozingiz bilan esa ozim yaxshilab gaplashib qoyaman. Ozim darslarni kuzataman.

- Ammo Rashid oqtuvchi yaxshi insondir. Lekin, bizga yetuk mutaxasis dars otishini xohlaymiz. U oqtuvchi oquvchilarga darslarni yaxshi yetkazib bera olmayapti. Kamchiliklar kop, Abdurahim aka. Xohlasangiz oquvchilar bilan ham bir suhbat qilib koring.

- Mayli, suhbat qilamiz. Bu qogoz esa bizda qolsin. Hali hammasi yaxshi bolib ketadi (ayyorona kuldii direktor o'rinnbosari).

Shu taxlit suhbat yakunlandi. Ertasiga katta ozgarishlarni kutgan Adolat hech narsa sezmadи. Avvalgidek eski hammom eski toz. Ammo direktor uni xonasiga chaqirib qattiq dakkii berdi, juda qattiq urushdi. Guruhga bosh bolib, oqtuvchini almashtirishni sorash bu oquvchidan sorab qilinadigan ish emasligini qayta-qayta unga uqtirdi. Boshqa bunday ish qilmasligi kerakligini tushuntirdi.

Adolat direktor xonasidan kozi tola alamlı achchiq yosh ila chiqdi. Ammo yiglamadi. Qalbi okirib-okirib, oksib-oksib yigladi. Lekin, kozidan bir tomchi ham yosh oqizmadi. U har gal nohaqlikka uchrasa, rahmatlik otasining gapini eslaydi: "Bolam har doim

nahotki odamlar pul, mansab, tanish-bilish uchun, hurmat uchun kelajak avlodning poydevoriga bolta urishsa?

Adolat yolda ketar ekan, shular haqida chuqur hayollarga berilib ketardi. Oziga-ozi tinmay savollar berar, ajablanardi. U nafaqat Rashid akadan u bir saviyasiz oqtuvchiku, mayli etiborsiz amalparast Abdurahim akadan ham, u ham maylikuya u eng kop direktordan xafa bolayotgandi. Zero, oquvchi bilim talab qilsa ham yomon bolsa, axir ilm talab bolsa, yosh avlod oqiyman, menga talim bering, - deb yordam sorasayu, uning ogzini boylashsa? Nahotki, baliq boshidan deganlaridek, direktoring ozi ham shunday



esingda bolsin, hech qachon ogzing qonga tolsada, dushmaning yonida tupurma" - derdi. Adolatning hozirgi holati otasi vasiyatining bir parchasi edi. Oradan kunlar otdi. Adolat Abdurahim akaning Rashid aka bilan aka-uka ekanligini bexosdan eshitib qoldi. Shu zamon ichi nafratga toldi. Yoq, dunyoga nisbatan emas, hayotga, insonlarga nisbatan ham emas. Sotqin odamlarga nisbatan. Inson nomini kotarib yurgan manfur, xiyonatkor, sotqin kimsalardan ich-ichidan nafratlandi.

Uyiga qaytar ekan, bu maktabda oqimasligini, uzoq bolsa ham boshqa qishloqdagi maktabga, piyoda qatnab bolsa ham osha yerda oqishga ahd qilganligini onasiga aytishini oyladi. Albatta onasi bunga kop qarshilik qiladi buni ham biladi. Ammo bunday kelajak qotillarining qolida oqishni xohlamasi, bu yerda oqiy olmasligini, bilim olmasligini bilardi. Nahotki odamlar bir kishining manfaati uchun yuzlab kelajak avlodni qurban qilishsa,

amalparast va laganbador, zamonaviy tilda aytadigan bolsak, korruptioner bolsa?

Adolat katta tubsiz hayollar ummonida uyiga ketarkan osmonda yangi hilol oy paydo bolganini kordi. Shu zamon qalbida bir mislsiz kuch paydo boldi. Bu kuch kelajak uchun kurashish, bunday odamlarni jamiyatdan irg'itib tashlash uchun bel boglayotgan qizning eng avvalo, kozlarida, song qattiq tugilgan mushtida jam boldi. Ha, Adolat oz oldiga endi mana shunday korruptioner kimsalarni jamiyatdan tag-tugi bilan qo'porib tashlash, yurt kelajagi, yoshlar kelajagi uchun behad zarar bolgan kimsalardan tozalaydigan haqiqiy "Adolat" timsoli bolish uchun harakat qilishni, kelajakda shunday kasb egasi yani otasi xohlagandek, "tergovchi" bolishni maqsad qilid qoydi. Endi uni bu yoldan ushbu kasbni yomon koradigan onasi ham qaytarolmaydi. Endi, Adolat haqiqat va adolat uchun kurashuvchi boladi...



**XAFIZA ALIBEKOVA,
“MADANIYAT VA SAN’AT
MUASSASALARINI TASHKIL
ETISH VA BOSHQARISH” TA’LIM
YO’NALISHI 2-BOSQICH TALABASI**

Mart oyining oxirlari edi. Adolat ukasi bilan hovlida ishlashardi. Ukasi tok novdalarini yogoch narvonga boglarkan, tokning bir qancha qalin, ammo taxtadek qotib ketgan shoxlarini kesib-kesib tashlayotgani Adolatning etiborini tortdi. UKasidan soradi: "Sanjar nega bu shoxlarni kesyapsan, ukajon, daraxtning joni ogrimaydimi, axir yana shuncha shox osishi uchun qancha vaqt ketadiku?"

Sanjar begubor kuldii va opasiga javob berdi: "Opa bu shoxlar aslida daraxtg'a ozor bermoqda, bu shoxlar qurib qolgan, ular endi meva bermaydi. Aksincha, endi bu shoxlar daraxtning kop ozuqasini oziga oladi-yu, meva berishiga tosqinlik qiladi. Ularni qanchalik qalin bolib ketmasin, kesib tashlash kerak. Shunda daraxt yanada gurkirab osadi, yashnaydi, yangi novdalar chiqaradi. Serhosil, foydali novdalarni unib chiqishiga tosqinlik qilmasligi uchun tezroq eski qurigan foydasiz, hosilsiz shoxlarni kesib tashlash zarur. Bu ishni qancha erta qilsak, shuncha kop shirin-shakar uzumlar olamiz. Kesish ishi qanchalik kechiksa, biz mevalardan shuncha quruq qolamiz va alaloqibat, hatto daraxtni ham boy berishimiz mumkin. Adolat ukasining daraxt va tabiat haqida aytayotgan ushbu gaplarini eshitib, inson hayoti, jamiyat, yurt taraqqiyotining ham rivojlanish qonuniyatlarini naqadar tabiatning, biz ko'p e'tibor bermaydigan kichik, ammo judayam ahamiyatlari qonunlariga judayam oxshashligini anglatdi. Bu narsalarni anglatayotgan ukasiga va uning zehniga tahsin oqirdi. Qodir Allohga qalbida shukronalar keltirardi. Yaratgandan kelajakdag'i maqsadlari yolda kuch-quvvat berishini sorardi. To'g'ri, ushbu maqsadlar oson amalgal oshmaydi, ammo Adolat uddalaydi..."

Men bu romanni o'qir ekanman, asli buxorolik bo'lgan, go'zal o'qituvchi qiz taqdidi qalbimni larzaga keltirdi. Roman ni sevimli yozuvchimiz Iqbol Mirzo 2016-yilda yozgan. Roman ni juda tez fursatda o'qib tugatganman. Chunki roman kichik esdalik shaklida juda qiziqarli hayotiy voqealar asosida yozilgan. Balki shuning uchun ham, bu roman meni sevib o'qigan asarlarimdan biri bo'lib qoldi.


MUNIRA RAXIMOVA,
AXBOROT BIBLIOGRAFIYA XIZMATI RAHBARI

"Bonu" romani...

Bu roman kitobxonlar o'rtaida juda mashxur va muhokomalarga sabab bo'lib minglab insonlar tomonidan o'qib chiqilishga ulgurdi. Hattoki romanning bosh qahramoni bo'lgan Bonuning kitobda qoldirilgan telefon raqami bilan bog'lanib, haqiqatdan ham shu voqealar bo'lganmi hayotiningizda? – deb suhabatlashgan odamlar bilan uchrashishga muvaffaq bo'ldim. Siz kitobxonlarga romanning barcha voqealarini aytib bera olmasamda, hayotning turfa girdoblarini ayol bo'lishiga qaramasdan insoniylikning eng oliy tug'ularini buzmasdan, sabr bilan yengib o'tganligi tafsinga sazovor ekanligini aytib o'tmoqchiman. Yana bir esimda qolgan jihatlaridan, Bonu o'z taqdirdida sodir bo'lgan har qanday voqeani yozuvchiga telegram orqali yozib yetkazib bera organligida, hech qaysi voqeani yashirmsandan boricha yozib, yozuvchini kitob

chiqarishga unday olganligidir. Bonu ziyorilar oilasida g'am-tashvish ko'rmay, beg'ubor bolalik onlarini o'tkazib hayotida qora, g'amli kunlar qachon boshlanganligi haqida ko'p o'laydi va bu misralarni hayolidan ko'p bora o'tkazadi. Bu misralar sizni ham befarrq qoldirmaydi, deb o'layman: "Hayotining o'zgartirgay bir inson va bir kalom, o'shal inson sen o'zingsan, endi so'zni top tamom".

Uning hayotida bobosi, otasi, onasi unga eng qadrlar insonlar bo'lib qoldi, lekin qolganlar qaysidir ma'noda uning qadrini, his tuyg'ularini, eng beg'ubor damlarini o'z manfatlari yo'lida qurban qiladi. Tug'ishgan akasi bobosidan Bonuga qoldirilgan merosni hech bo'lmasa eslab yurishi uchun ham qoldirmagani, boba merosni saqlab qolish o'niga o'z nafsi yo'lida ishlatsani unga juda og'ir botadi. Go'zal Bonuning tanasida oq dog'lar paydo



bo'lib, uning taqdirini butunlay o'zgarib ketishi, "sevaman" – deb yuz o'girgan yigit. Olmosning hiyla nayranglari, uni rossiyaga ketishi va u yerda garchi unga begona bo'lsada tug'ishganidek mehribonchilik ko'rsatib, unga yordam qo'llini cho'zib, odamiylikning eng ezgulikka yo'g'rilgan jihatlarini ko'rib shukur qilasiz.

Bu asarni o'qib, xulosa qilar ekanman inson o'z taqdirini qay tarafga boshlashi faqatgina o'z qo'lida ekanligini tushinib yetdim. Bir inson taqdirida qanchadan-qancha insonlar ta'siri bo'lishi esa, jamiyatga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Sizlarga ushbu asar haqida fikr-mulohazalarimni bayon qildim. Roman ni o'qib chiqqaniningizdan keyin anchagacha asar voqealarini sizni o'z ta'sirida qoldirishiga ishonaman. Ushbu asarni o'qishni tavsiya qilaman.

Ko'rgazma

Bitiruvchilar fotoko'rgazmasi

Toshkent fotosuratlar uyida ijodiy fotografiya mabkab studiyasi 8 nafar bitiruvchilarining an'anaviy ko'rgazmasi ochildi.

Ko'rgazmada insonlar siyoshi, turmush tarzimiz, hayotimizning turli ko'rinishlaridan lavhalar tashkil topgan. Ko'cha fotosurati, badiiy portret, ijtimoiy fotografiya, landscape, natyurmort, reportaj kabi janrlarda suratga olingan, saralanib taqdim etilgan ishlari o'rinni olinan.

Bitiruvchilarining ijodiy ishlariidan tashqari, mabkab studiya o'quv jarayonidagi eksperimental yangilik sifatida installyatsiyalar bilan birga ikkita fotoloyiha taqdim etilgan.

Orzular dunyosi

O'zbekiston Badiiy akademiyasining Ikuo Xirayama xalqaro madaniyat karvonsaroyida yosh rassom Diyora Nizomovaning "Orzular dunyosi" deb nomlangan shaxsiy ko'rgazmasi ochildi.

Ekspozitsiyada uning "Qor qoploni", "Uchrashuv", "Sohil bo'yida", "Uyga qaytish", "G'ira-shira payt", "Manzara", "Qish kechasi", "Qishgi tong", "Atirgullar", "Kelajak", "Kuz manzarasi" kabi ijod namunalari o'rinni olinan.

Diyora 2008-yil Toshkent shahrida ziyoli oilda tavallud topgan. Onasi arxitektor. Barcha fanlardan muvaffaqiyatlari o'qiydi. Bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga harakat qiladi. Ustozi rassom A.Ahmedxo'jayevdan rassomlik sirlaridan saboq oladi. Ko'rgazmaga 20 dan ortiq ijod namunalarini taqdim etgan bolalar ijodi bo'yicha shahar, respublika tanlovlari qatnashib turadi. Kuzatuvchan fikr qiladi. Ko'rgazmada o'zi qatnashib, ijodiy ishlari va motivlari bo'yicha savollarga javob beradi...

HASAN ABDUNAZAROV

Tabiat manzaralari rassomlar nigohida

O'zbekiston Badiiy akademiyasining Markaziy ko'rgazmalar zalida 38 ta an'anaviy "Rassom va tabiat" respublika badiiy ko'rgazmasi tashkil etildi. Ko'rgazmada O'zbekiston Badiiy ko'rgazmalar uyushmasining 64 nafar rang tasvirchi va grafik rassomlarning 120 dan ortiq ijod namunalari, mammakatimizning xilma-xil tabiat, yil fasillarining o'ziga xos ko'rinishlari namoyon etildi. Ekspozitsiyadan rassomlarning "30 ming o'mon qo'riqxonasi", "Sovuq emas", "Tandir boshida", "Navro'z kechasi", "Ugam uzra parvoz", "Qishgi simfoniya", "O'rmonda qor", "Kuz", "Quyoshli kun", "Ko'l bo'yida chorvoq", "Yangi Toshkent", "So'qoq"ning bir necha ko'rinishlari o'rinni olinan.



Muassis:
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir
Ma'rufjon YO'L DOSHEV

Tahir hay'ati:
Sobirjon JUMAYEV
Hamdam ISMOILOV
Muhammar:
Dilnoza QURBONOVA
Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

www.dsni.uz;
nashriyot@dsni.uz

"Palahmon toshi"



SABRINA IBRAGIMOVA
"MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH"
TA'LIM YO'NALISHI
2-BOSQICH TALABASI

Asli qiziz, ota uyga mehmon ekan,
Vaqt kelib, yor uyiga ketar ekan,
Yig'lab-yig'lab, hayotiga ko'nar ekan,
Otajonim, qizbolaga og'ir ekan.

Erkaliklar qilolmayman, o'zga uyda,
Ota-onam ko'rolmayman yor uyida,
Ne deyishsa, ko'namanda ichim yonib,
Otajonim, qizbolaga og'ir ekan.

O'g'lingizku, yoningizda bo'ladi-da,
Sho'x-sho'x kulib, doim yashab yuradi-da,
Qiziz bo'lib uyingizda turolmayman,
Achchiqqina ko'k choy damlab berolmayman,
Otajonim, qizbolaga og'ir ekan.

Тавсия

- Eng yomon soya – QO'RQUV
- Eng yomon xato – RUHAN TUSHKUNLIK
- Eng qo'rqinchli odam – YOLG'ONCHI
- Eng yomon qalb qoraligi – HASAD
- Eng katta boylik – OQILLIK
- Eng katta meros – TARBIYA
- Eng katta kuch – SABR
- Eng katta xazina – ILM
- Eng mashaqqatli ish – NAFSNI TARBIYALAMOQ
- Eng og'ir mehnat – YOMON XULQNI YAXSHISIGA ALISHTIRMOQ
- Eng go'zal ish – UZR SO'RAMOQ VA KECHIRMOQ
- Eng go'zal ko'rinish – TABASSUM
- Eng buyuk ne'mat – IYMON, ISHONCH, UMIDdir
- Eng yaqin, eng ishonchli do'st – ALLOHdir

O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Nusxasi – 250 dona. Narxi kelishilgan holda.
Chop etishga 1.03.2024-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olinan.

Gazeta elektron ko'rinsida havola etilmoqda